

TA'MINOT BERISH MAJBURIYATINI BAJARMAGANLIK YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI.

M.S.Usmonova

Farg'ona davlat universiteti huquq ta'limi
kafedrası dotsenti, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola aliment to'lash majburiyatlari va ularga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari haqida bo'lib, aliment bo'yicha qarzdorlarning majburiyatlarini bajarmaslikning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil etadi. Maqolada alimentni to'lamaganlik uchun turli javobgarlik shakllari, jumladan fuqaroviy-huquqiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik keltirilgan. Ta'kidlash joizki, aliment bo'yicha qarzdorlar uchun joriy etilgan eng qat'iy huquqiy choralarga qaramay, aliment qarzining kamayishi kuzatilmayapti. Shuningdek, maqolada aliment qarzini undirishda yuzaga keladigan muammolar va aliment bo'yicha majburiyatlarni bajarishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari ham ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining oilaviy qonunchiligida aliment to'lashdagi kamchiliklar va farzandlarning ota-onaga qarshi majburiyatlarini bajarishdagi cheklovlar bo'yicha bir qator takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: aliment, majburiyatlar, huquqiy javobgarlik, fuqarolik huquqi, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, ta'minot, aliment qarzi, meros, farzandlar, qonuniy javobgarlik, iqtisodiy muammolar.

ISSUES OF LIABILITY FOR NON-FULFILLMENT OR IMPROPER FULFILLMENT OF THE OBLIGATION TO PROVIDE MAINTENANCE.

M.S.Usmonova

Associate Professor of the Department of Law, Fergana State University,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract: This article discusses the obligations related to the payment of alimony and the legal consequences of failing to fulfill these obligations. The paper highlights various types of responsibility applied to those who fail to pay alimony,

including civil, administrative, and criminal liability. Despite the strict legal measures in place to enforce alimony payments, the article observes that the amount of alimony debt continues to rise each year. Furthermore, it examines the social and economic issues that contribute to the non-fulfillment of alimony obligations, alongside the legal responsibility mechanisms. Proposals are made for changes in the family law of Uzbekistan to address the lack of enforcement against those who neglect their parental duties, as well as issues relating to inheritance rights.

Keywords: alimony, obligations, legal liability, civil law, criminal responsibility, administrative liability, maintenance, alimony debt, inheritance, children, legal responsibility, economic issues.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕИСПОЛНЕНИЕ ИЛИ НЕНАДЛЕЖАЩЕЕ ИСПОЛНЕНИЕ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА ПО ПРЕДОСТАВЛЕНИЮ ОБЕСПЕЧЕНИЯ.

М.С. Усмонова

Доцент кафедры юридического образования Ферганского
государственного университета, доктор юридических наук (PhD)

Аннотация: В данной статье рассматриваются обязательства по выплате алиментов и последствия их неисполнения, включая юридическую ответственность. В статье выделены различные виды ответственности для тех, кто не выполняет свои алиментные обязательства, такие как гражданская, административная и уголовная ответственность. Несмотря на введение строгих правовых мер для взыскания алиментов, статья отмечает, что долг по алиментам продолжает расти каждый год. Также исследуются социальные и экономические проблемы, которые способствуют неисполнению алиментных обязательств, наряду с мерами юридической ответственности. Предложены изменения в семейное законодательство Узбекистана в отношении наказания тех, кто уклоняется от выполнения родительских обязательств, а также вопросы, связанные с правами на наследство.

Ключевые слова: алименты, обязательства, юридическая ответственность, гражданское право, уголовная ответственность, административная ответственность, содержание, алиментный долг, наследство, дети, правовая ответственность, экономические проблемы.

Ta'minotga oid majburiyatlarni bajarmaslik amaldagi qonun normalarimizga asosan bir qator ta'sir choralarni belgilaydi. Jumladan, qarzdorning O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash, undiruvni qarzdorning pul mablag'lariga va boshqa mol-mulkiga qaratish; undiruvni qarzdorning boshqa shaxslarda turgan pul mablag'lariga va boshqa mol-mulkiga qaratish; undiruvni qarzdorning debitorlik qarziga, shu jumladan qarzdor undiruvchi sifatida ishtirok etayotgan ijro hujjati bo'yicha unga tegishli bo'lgan mablag'larga qaratish; undiruvni qarzdorga tegishli bo'lgan alohida mulkiy huquqlarga qaratish; undiruvni qarzdorning ish haqi, stipendiyasi, pensiyasi va boshqa turdagi daromadlariga qaratish va boshqa ta'sir choralaridir¹.

Yuqorida qayd etilgan ta'sir choralarini qo'llashning imkoni bo'lmasa, javobgarlik masalalari hal etiladi.

I.B.Morozova majburiy ijro choralarini javobgarlik sifatida tan olib bo'lmaydi, chunki davlat majburlov chorasi faqat mavjud majburiyatni ta'minlash uchun qaratilgan, bunda huquqbuzarlik natijasida qo'shimcha majburiyatlar, yangi maxsus majburiyatlar paydo bo'lmaydi, majburiy ijro choralari sanksiyalarni amalga oshirish shakli (usuli) vazifasini bajaradi² degan fikrni qayd etadi.

Aliment to'lash bo'yicha ularni to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan yuzaga kelgan qarzlarning paydo bo'lishi unga nisbatan oilaviy qonunchilik, fuqarolik qonunchiligi yoki jinoiy javobgarlik choralarini qo'llash bilan bog'liq deb ta'kidlaydi O.Y.Sitkova.³

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berish majburiyatini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qo'llaniladigan javobgarlikni shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

¹ O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonun//elektron manba//42¹-46-moddalar//<https://lex.uz/mact/-26477/> 2025 y

² Морозова И.Б., Треушников А.М. Исполнительное производство: Учебнопрактическое пособие. М.: Городец, 2006. В 111.

³ Sitkova O.Y. Способы защиты семейных прав // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. 2014. № 2. б. 112

- fuqaroviy-huquqiy javobgarlik
- ma'muriy huquqiy javobgarlik
- jinoiy huquqiy javobgarlik

Aliment undirishga oid tuziladigan bitimlarga aniq va to'liq shartlarning kiritilishi, kelgusida yuzaga keladigan nizoning sudlar tomonidan hal etilishi va bitim yuzasidan ijro etish masalalarini osonlashtiradi. Noaniq va belgilanmay qolgan shartlar esa sud faoliyatini qiyinlashtiradi.

E.Yu.Kostyuchenko, S.A.Sidorova, A.M.Erdelevskiy va O.V.Kapitovalar⁴ aliment oluvchi tomonidan to'lanmagan aliment uchun ma'naviy zarar undirish ko'rinishidagi javobgarlikni qo'llashni yoqlaydilar.

E.A.Usachyov esa aliment munosabatlardagi zarar xususida faqat aliment oluvchiga yetkazilgan haqiqiy zarar, masalan, alimentni oluvchi alimentni to'lamaganligi sababli tuzishga majbur bo'lgan qarz shartnomasi yoki kredit shartnomasi bo'yicha to'langan foizlar qoplanishi kerak⁵ degan fikrni bildiradi.

N.I.Avdeyeva alimentni to'lash usuliga qarab javobgarlikni ikki turini farqlaydi⁶:

- shartnoma yuzasidan javobgarlik;
- sud qarori asosidagi javobgarlik.

Shartnoma yuzasidan javobgarlik haqida so'z borar ekan, aliment to'lash bo'yicha tuzilgan kelishuvga ham ayrim holatlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid normalar qo'llanilishini inobatga olish zarur.

Ma'lumki shartnomaviy munosabatlarda fuqarolik huquqiy javobgarlikdan biri sifatida ma'naviy zararni⁷ uchratish mumkin, Shu nuqtayi nazardan alimentga oid bitimlarda agarda fuqarolik huquqiy munosabatlar qo'llanilishi inkor etilmasa, u holda ushbu munosabatlarga ham fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yana bir turi hisoblangan ma'naviy zararni undirishni qo'llash mumkinligi haqida bahs-munozaralar mavjud.

⁴ Kapitova O.V. Правовая природа механизма алиментирования в семейном праве Российской Федерации. у.ф.н. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. М 2009 В 17

⁵ Усачев Е.А. Ответственность плательщика алиментов за ненадлежащее исполнение алиментного соглашения: проблемы теории и практики// Актуальные проблемы российского права. 2015. № 9. в. 23-27

⁶ Avdeyeva N.I. Ответственность за неисполнение обязательств по уплате алиментов.// Юридические исследования, 2018 – 10//file:///C:/Users/Нр/Downloads/otvetstvennost-za-neispolnenie-obyazatelstv-po-uplate-alimentov.pdf// Россия, Курская область, г. Курск, ул.Ипподромная, 53//в 46

⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi [11](#), [99](#), [100](#), [163](#), [1021](#) va [1022-moddalari](#),// <https://lex.uz/docs/-111189> 2025y.

S.N.Tagayeva aliment munosabatlaridagi ma'naviy zarar haqida quyidagi asosli fikrlarni ta'kidlaydi: "ba'zida aliment fuqaro uchun yagona yashash vositasi bo'lganligi sababli, uni to'lashning kechikishi eng kam turmush darajasini saqlab qolishning imkoni yo'qligiga olib keladi va uning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ochlik, kasallik kabi jismoniy azob-uqubatlarni keltirib chiqarishi, shuningdek, mulkdan mahrum etish bilan bog'liq ma'naviy azob-uqubatlarni keltirib chiqarishi mumkin va shu tariqa yetkazilgan ma'naviy zararining o'rnini qoplashi shart."⁸

N.I.Avdeyeva⁹, L.V. Dzyubrovskaya¹⁰, O.A. Makeeva¹¹, M.A. Danilyanlar¹² ham o'zlarining tadqiqotlarida aliment o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda ma'naviy zararni qo'llash zarurligi haqidagi pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Biroq, yuqoridagi fikrlarga qisman e'tiroz fikrlarni taqdim etgan holda E.A.Usachev fikricha, ortiqcha huquqiy kafolatlar berish aliment oluvchini himoyasiz holatdan haddan tashqari vakolatli shaxsga aylantirishi mumkin¹³ deb ta'kidlaydi.

Buning aksi o'laroq, I.A.Nasriyev ma'naviy zarar yetkazish bilan bog'liq masalalarga yetarlicha ahamiyat berilmasligi turli huquqiy nizolarni keltirib chiqaradi degan fikrlarni qayd etadi.¹⁴

Ota-onaga moddiy yordam berish va g'amxo'rlik qilish biz avvalgi paragraflarimizda ta'kidlaganimizdek, nafaqat qonuniy, balki insoniy

⁸ Тагаева С.Н. К проблеме компенсации морального вреда в семейном праве // Вестник Пермского университета. 2012. Вып. 1 (15). б. 161-165

⁹ Avdeyeva N.I. Ответственность за неисполнение обязательств по уплате алиментов.// Юридические исследования, 2018 – 10//file:///C:/Users/Нр/Downloads/otvetstvennost-za-neispolnenie-obyazatelstv-po-uplate-alimentov.pdf// Россия, Курская область, г. Курск, ул.Ипподромная, 53//б 47

¹⁰ Дзюбровская Л.В. К вопросу об ответственности за нарушение соглашения об уплате алиментов // Пробелы в российском законодательстве. 2010. № 3. б. 121- 123

¹¹ Макеева О.А. Ответственность в алиментных обязательствах-основные особенности и порядок реализации // Семейное и жилищное право. 2010. № 1. б. 17-20

¹² Данилян М.А. Практика принудительного исполнения судебных решений, связанных с воспитанием несовершеннолетних, и направления совершенствования российского института алиментирования детей // Практика исполнительного производства. 2013. № 3. б. 12-21

¹³ Усачев Е.А. Ответственность плательщика алиментов за ненадлежащее исполнение алиментного соглашения: проблемы теории и практики// Актуальные проблемы российского права. 2015. № 9. б. 27

¹⁴ Nasriyev I. Shaxsiy nomulkiy huquqlar mazmuni, ularni amalga oshirish va kengaytirish istiqbollarning fuqarolik-huquqiy masalalari: Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2006. 51-b.

majburiyatlarimiz hisoblanadi. Biz o'zbek xalqining odat tusiga aylangan achinarli qoidalaridan biri shuki, ota-onani moddiy ta'minlash va g'amxo'rlik qilish kenja o'g'ilning zimmasiga yoxud ota-ona bilan birga yashash uchun qolgan farzandga yuklanadi. Go'yoki ota-onaning uy-joyiga ana shu farzand kelgusida egalik qiladi, shu sababli uning majburiyati hisoblanadi. Biroq ota-ona vafot etgach qachondir ta'minlashdan bo'yin tovlagan farzandlar o'rtasidagi meros talashish, mulk talashish, buning oqibatida yuz ko'rmas bo'lib ketishlik, hatto bu jarayonning fojia bilan tugayotganligi sudlar tomonidan bu toifa ko'rayotgan ishlardan o'z isbotini ko'rsatmoqda.

Ana shunday noqobil farzandlar o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovtasada, biroq ana shu ota-onasini mulkiga ega chiqiqsh istagi hech qachon yo'q bo'lmagan. Biroq amaldagi qonunchiligimiz bunday noqobil farzandlarga nisbatan tegishli ta'sir choralari yoki javobgarlik masalalarini belgilamagan.

Shu sababli muallif tomonidan o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan, biroq meros masalasiga kelganda hammadan olg'ir va o'z huquqini bilguvchi farzanlarga nisbatan Fuqarolik kodeksining merosga oid ayrim normalariga o'zgartirish taklifi ilgari suriladi.

Bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka voris bo'lish huquqiga ega emaslar, shuningdek meros qoldiruvchiga ta'minlab turish yuzasidan qonunga ko'ra zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va voyaga yetgan bolalar (farzandlikka olinganlar) qonun bo'yicha vorislik qilish huquqiga ega emaslar.

Noloyiq merosxo'rlarni vorislikdan chetlatish uchun asos bo'ladigan holatlar bunday chetlatish keltirib chiqaradigan vorislik bilan bog'liq mulkiy oqibatlarga daxldor shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, aliment bo'yicha qarzdorlar uchun qonuniy javobgarlikning eng qat'iy choralari ham aliment bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq vaziyatni yaxshilashga yordam bermaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aliment qarzi har yili faqat oshib boradi. Shu sababli, huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash bilan bir qatorda, bunday majburiyatlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi majburiyatlarning bajarilmasligining paydo bo'lishiga yordam beradigan boshqa muammolarni hal qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonun//elektron manba//42¹, 46-moddalar//<https://lex.uz/mact/-26477/> 2025 y
2. Морозова И.Б., Треушников А.М. Исполнительное производство: Учебнопрактическое пособие. М.: Городец, 2006. В 111.
3. Sitkova O.Y. Способы защиты семейных прав // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. 2014. № 2. б. 112
4. Kapitova O.V. Правовая природа механизма алиментирования в семейном праве Российской Федерации. y.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. M 2009 В 17
5. Усачев Е.А. Ответственность плательщика алиментов за ненадлежащее исполнение алиментного соглашения: проблемы теории и практики// Актуальные проблемы российского права. 2015. № 9. б. 23-27
6. Avdeyeva N.I. Ответственность за неисполнение обязательств по уплате алиментов.// Юридические исследования, 2018 – 10//file:///C:/Users/Hp/Downloads/otvetstvennost-za-neispolnenie-obyazatelstv-ro-uplate-alimentov.pdf// Россия, Курская область,г. Курск, ул.Ипподромная, 53//б 46
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi [11, 99, 100, 163, 1021 va 1022-moddalari](https://lex.uz/docs/-111189),// <https://lex.uz/docs/-111189> 2025y.
8. Тагаева С.Н. К проблеме компенсации морального вреда в семейном праве // Вестник Пермского университета. 2012. Вып. 1 (15). б. 161-165
9. Avdeyeva N.I. Ответственность за неисполнение обязательств по уплате алиментов.// Юридические исследования, 2018 – 10//file:///C:/Users/Hp/Downloads/otvetstvennost-za-neispolnenie-obyazatelstv-ro-uplate-alimentov.pdf// Россия, Курская область,г. Курск, ул.Ипподромная, 53//б 47
10. Дзюбровская Л.В. К вопросу об ответственности за нарушение соглашения об уплате алиментов // Пробелы в российском законодательстве. 2010. № 3. б. 121- 123